



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

**O‘ZBEK IMO-ISHORA TILIDA BIR XIL KONFIGURATSIYA BILAN
IMO-ISHORALARNING SUBSTANSIYASI, HARAKATNING
YO‘NALISHI VA SIFATINI O‘ZGARTIRISH ORQALI MA’NOLARNI
FARQLANISHINI**

Adilova Noiba Marifovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim fakulteti o’qituvchisi
Tel: +998909810013

Qaxramonova Iroda Suyun qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim fakulteti
surdotarjimon yo‘nalishi 101-guruh talabasi
Tel: +998886313503

Tayanch so‘zlar:Substansiya, struktura, konfiguratsiya, harakatning sifati, kontekst, konfensional ma’no, polisemiya.

Annotatsiya / Abstrakt

Uz.O'zbek imo-ishora tili substansiyasi — bu tilning asosiy tarkibiy qismidir, ya'ni tilning shaklini va mazmunini tashkil etuvchi elementlar yig'indisidir. Imo-ishora tilining substansiyasi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat.O'zbek imo-ishora tilining substansiyasi jamiyatdagi eshitish qobiliyati cheklangan insonlarning o'zaro muloqotini ta'minlash uchun zarur bo'lgan asosiy vosita hisoblanadi.

Рус.Субстанция узбекского жестового языка-это основной компонент языка, то есть совокупность элементов, составляющих форму и содержание языка. Субстанция жестового языка состоит из следующих основных компонентов.Субстанция узбекского языка жестов является основным средством, необходимым для обеспечения общения людей с нарушениями слуха в обществе.

English.The Uzbek sign language substance is the main component of the language, that is, the sum of the elements that make up the shape and content of the language.

International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

The substance of sign language consists of the following main components. The substance of Uzbek sign language is the main tool needed to ensure the interaction of hearing-impaired people in society.

Imo-ishoralar inson uchun juda muhim omil bo'lib, ulardagi ma'nolar har doim shakllansada, biroq harakatning yo'nalishi va sifati orqali o'zgarib turadi. Qadimdan inson uchun imo-ishoralarda muloqot qilish eng qulay usul hisonlangan. Inson yaratilgandan boshlab, imo-ishoralar asrlar mobaynida taraqqiy etib shakllangan. Demak, bir xil konfiguratsiya bilan imo-ishoralarning substansiyasi, harakatning yo'nalishi va sifati o'zgartirish orqali ma'nolarini farqlash mumkin. Imo-ishoralarning substansiyasi bu ularning joylashgan o'rni, tezligi, yo'nalishi kabi moddiy xususiyatlari hisoblanadi. Bu xususiyatlar o'zgarsa, imo-ishoralarning ma'nosi ham o'zgarishi mumkin. Imo-ishora ma'nosi esa uning idrok etiishi, kichik yoki katta kontekstdagi ahamiyati, vazifasi sanaladi.



Ko'rsatgich va jimjiloq barmoqlar yozilgan holdagi konfiguratsiya asosida imo-ishoralarning substansiyasi harakatning yo'nalishi va sifati o'zgartirish orqali ma'nolarini o'zgartirsa bo'ladi.



Chaqaloq-so'zini ifodalash uchun konfiguratsiyasi ko'rsatgich va jimjiloq barmoqlar yozilgan holda bo'ladi. Lokalizatsiyasi fazoda ko'krak to'g'risida joylashgan. Harakatning yo'nalishi esa o'ngdan-chapga aylana holatida bo'ladi.

International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

Bundan tashqari ko'rsatgich va jimjiloq barmoqlar yozilgan holat konfiguratsiyada boshqa ma'nolarni ham ifodalash mumkin.

Misol uchun:

Mebel, kamera, instagram, deraza, aldash, sichqon, qurbaqa, damas, samalyot va h.k.

Bu so'zlarning barchasini konfiguratsiyasi bir xil, harakatning yo'nalishi, imo-ishoralarning substansiyasi va sifatini o'zgartirish orqali ma'nolari o'zgaradi.

Imo-ishoralar soda yoki murakkab tuzilishga ega bo'lishi mumkin, bu ularning ma'no xilma-xilligini belgilaydi.

Masalan: Gul so'zi sodda tuzilgan, qo'zi va qorin sodda so'zlarning qo'shilishi



(gul)



(qo'ziqorin)

natijasida qo'ziqorin murakkab so'zi shakllanadi.

Imo-ishoralar bir xil konfiguratsiyada bir necha ma'noga ega bo'lishi, ya'ni **polisemik** bo'lishi mumkin.

Polisemiya-bu imo-ishora bir xil substansiyada bir necha ma'noga ega bo'lishi, ya'ni ko'p ma'no anglatishi hisoblanadi.



Masalan:

Xafa- bir soni konfiguratsiyasi, lokalizatsiyasi yuzning o'ng tomonida, harakatning yo'nalishi yuzga bir marta tegish.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

Kamtar- bir soni konfiguratsiyasi, lokalizatsiyasi yuzning o'ng tomonida, harakatning yo'nalishi yuzga ko'p marta va tez-tez tegish orqali takrorlanadi.

Imo-ishoralarni ishlatish jarayonida harakat o'rni, tezligi va sifati kabi xususiyatlari ularning ma'nosini o'zgartiradi. Har bir imo-ishorada quyidagi sifatlar bo'lishi lozim:

1. Substansiya- imo-ishora moddiy xususiyatlari.
2. Ma'no yaratish- substansiya asosida ma'no ifodalanish jarayoni.
3. Konvensional ma'no- imo-ishoralarning aniq qabul qilingan ma'nosi.
4. Muayyan kontekst- aniq vaqt va makon sharoitlaridagi ma'no.
5. Idrok etish- insonning imo-ishoraga beradigan individual ma'nosi.

Kontekstlikka bog'liqlik. Imo-shoralarning ma'nosi ularning qanday qo'llanishi, qaysi kontekstda ishlatilishi bilan uzviy bog'liq. Imo-ihsoralarning aniq kontekstdagi ma'nolari ularning semantik maydoni doirasida shakllanadi. Imo-ishoralarning ma'nosi kontekstga bog'liq bo'lib, u ma'no transformatsiyani ta'minlaydi. Bir gapda asosiy ma'noni ifodalasa, boshqa gapda kontekstdan kelib chiqib ma'nosi o'zgaradi. Demak, imo-ishoralarni matnda to'g'ri foydalanishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov Q , Egamberdiyev B. "O'zbek tili ishora imlo qoidalari".
2. Xolmanova Z. " Tilshunoslik nazariyasi".
3. Mamarajabova Z.N, Yembergenov D.T, Muxammadjonova D.F. "IMO-ISHORA NUTQI SEGMENTATSIYASI".
4. Temirov B. "O'zbek imo-ishora tili va muloqot"
5. Fradkina R.N. " Govoryashie ruki".